

MUHAMMAD BOLTAYEVNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Asrorova M.U.

Buxoro davlat texnika universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasining katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15754545>

Annotatsiya. ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutasavviflarining islom falsafasi rivojlanishida tutgan o‘rni va ushbu mavzuni o‘rgangib, jamiyatimiz ma’naviyatino oshirishga hissa qo‘shgan olim M.Boltayev haqida qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, faylasuf - olim M.Boltayevning Markaziy Osiyo so‘fiylarining tasavvuf haqidagi qarashlari o‘rin egallagan.

Tayanch so‘zlar: Islom falsafasi, mutasavvuf, Sharq allomalarining ilmiy merosi, tasavvuf ta’limoti, islom ma’rifati, so‘fiylik falsafasi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, yetakchi oliy ta’lim muassasalarida nemis klassik falsafasi, fransuz falsafasi, ingliz falsafasi shakllanishiga muhim hissa qo‘shgan namoyandalarning falsafiy merosini o‘rganish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, sobiq ittifoq davri falsafasini o‘rganishdagi noxolisliklar, o‘zbek falsafasini o‘rganishdagi bir yoqlama yondashuvlarning mavjudligi mazkur muammo bo‘yicha zamonaviy izlanishlarni taqozo qilmoqda. Shu ma’noda, o‘zbek faylasuf olimi Muhammad Boltayevning falsafa va tasavvuf g‘oyalari, tariqat tamoyillari, ularning davr axloqiy tendensiyalariga ta’siri, umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘unligiga oid qarashlari bugungi ma’naviy, diniy-ijtimoiy masalalar yechimida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

M.Boltayev — o‘zbek falsafasi va milliy madaniyati sohasida ilmiy ishlari bilan tanilgan olim. Uning ilmiy ishlari va nazariy maqolalari ko‘plab chet el olimlari va tadqiqotchilari tomonidan muhokama qilingan va havola berilgan. M.Boltayevning ishlari, ayniqsa, ijtimoiy fanlar, ta’lim, ma’naviyat va falsafada muhim o‘rin tutadi.

Muhammad Boltayevning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi o‘zbek ilm-fani, falsafasida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Uning ibratli hayot yo‘li, ilmga ayniqsa, Sharq va G‘arb falsafasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, izlanishlari umume’tirof etilgan. Jumladan, uning Sharq falsafasining tarkibiy qismi hisoblangan tasavvuf falsafasi borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovor. Olimning ilmiy merosiga uning tadqiqotlariga qiziqish, o‘rganish hayotlik vaqtlaridan boshlangan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalarida keltirilgan iqtibosliklar, Respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda yozilgan maqolalar buni asoslaydi.

Hayot bor ekan undagi qonuniyatlar insonni boshqaradi, hayot yo‘llarini yoritadi va qalb kechinmalari sari yetaklaydi. Qalb kechinmalarini tuygan inson ma’lum bir tushuncha, holatga qarab fikrlaydi, mutolaa qilib mushohada yuritadi. Ushbu mushohadalar jamlanmasi aniq, ma’lum bir falsafiy nazariyani yoki falsafiy dunyoqarashni tashkil etadi. Bu falsafiy qarashlar insonning jamiyat va turmushdagi o‘rnini aniqlab falsafa dunyosidagi muammolar yuzasidan keng fikr yuritishida xizmat qiladi. Mana shunday falsafa dunyosida o‘z ilmi, go‘zal xislati va fazilatlari bilan qalbimizdan joy olgan olim – mo‘tabar zot Muhammad Nazarovich Boltayev.

Bu ajoyib insonni hayot vaqtlarida ko‘rish nasib etmagan bo‘lsa-da, bu insonni va u kishining ilmiy meroslarini yetishtirgan shogirdlaridan, bugungi kunda jamiyatimizning turli jabhalarida o‘z faoliyatini yuqori darajaga ega bo‘lgan olimlardan o‘rganishga azmu - qaror qildik. O‘ylaymizki, u kishining qo‘l ostida kamol topgan va yetishib chiqqan shogirdlaridan bizni qiziqtirgan ko‘pgina savollarga javob topishga va ajoyib inson xaqida ilmiy ish yozishga

yetarlicha manba bo'lishiga qattiq ishonamiz. Ustoz va olim M.N.Boltayev haqidagi ilk taassurotlarni, u kishining sevimli shogirdlaridan biri bo'lgan dots.s.f.d. Karimov B.SH.ning ustozlari haqidagi maqolalaridan ega bo'ldik: "Sochlari va qoshlari oq, nigohlari ma'noli, baland bo'yli, kelishgan, xushmuomala, mulohazali, talabchan, sakson yoshdan oshgan bo'lishiga qaramay tetik va nuroniy sifatida hammaning xotirasida gavdalangan bu olimning falsafa dunyosida qilgan mehnatlari beqiyosdir". Chunki falsafa fanida o'rta asr olimlari ijodini o'rganibgina qolmay, balki tib ilmining asoschisi ibn Sino haqida ko'p zahmat chekib katta boylikni meros qoldirgan M.Boltayev ijodi va ilmiy faoliyatini o'rganish vaqti keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Atoqli faylasuf olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor, Buxoro falsafa maktabining asoschisi Muhammad Nazarovich Boltayev ko'pchilikka ma'lum va manzur. Bu inson bilan hamkorlik qilgan, suhbatlaridan bahramand bo'lgan inson, albatta, baxtli insondir. Faylasuf olim - M.Boltayev haqidagi ma'lumotlarni biz, shogirdlari tomonidan ustozning 80 yoshlik yubileyi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy konferensiya to'plamlaridagi maqola va tezislardan, qolaversa, ustozning sevimli shogirdlari, hamkasblari, do'stlari va yaqinlari tomonidan bizga bergan ma'lumotlaridan o'qib o'rgandik va buning uchun ularga chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz.

M.N.Boltayev - 1928-yilning 16-oktabrida Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug'ilganlar. 1935-1945-yillarda Buxoro shahridagi 9-o'rta maktabda tahsil olganlar. Buxoro shahridagi oldingi Tekstilnaya, keyinchalik nomi o'zbeklashtirilgan, Hamro Mahmudov ko'chasi (Krasnaya dacha ro'parasidagi) 4-uyda yashaganlar va shu uyni ustoz 1983 yoki 1984-yillarda Buxoroga ko'chib kelganlaridan keyin sotib olganlar. Olamdan o'tganlaridan keyin uni turmush o'rtoqlari sotganlar. Hozirgi kunda, "men, uying egasi tomonidan, uyni qaytadan "zamonaviy inson" ning yangi uyini qurganini payqadam". M.Boltayevning jiyanlari Norov Sh.Q. ning bizga bergan ma'lumotlariga ko'ra, M.N.Boltayevning otalari - Boltaboy Nazarov, Vobkentlik savdogarlar (o'sha davrda paxta pishmay qolgani uchun, paxta hosili - g'o'ra yoki ko'rak yetishtirib sotadiganlar) oilasidan bo'lib, Moxi - Xossadagi amir qarorgohi darvozasi qandahorlaridan bo'lgan ekanlar.

Onalari - Djalolova Muxiba, Qori Jalol oilasidan bo'lib (1900 - yilda Buxoroda tug'ilgan bo'lib, so'zlashuv tojik tilida bo'lgan, Qur'on va boshqa kitoblarni arab va fors tillarida o'qiganlar) madrasani bitirganlar. Sobiq Sovet tizimigacha 1918-1922-yillarda Arkda istiqomat qiluvchi oilalar bolalariga Bolo maschitda qizlarga dars berganlar. Urush yillarida minorayi Kalondan uzoq bo'lmagan Telmon artelida 4 ta bolani boqish va tarbiyalash uchun ishlaganlar. Muxammad Nazarovich, o'sha kezlarda yosh o'spirin bola bo'lganlar va etikdo'zlik bilan shug'ullanganlar. Otalari 1937 - yilda qatag'on bo'lib, 1 yildan so'ng olamdan o'tgan ekanlar.

1943-1944-yilda ishchi sifatida "Sokpokud" artelida ishlaganlar. 1948-1949-yilda Buxoro shahri M.Gorkiy nomli maktabda o'qituvchi sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Bilimga, ilmga bo'lgan intilish oilaga borib taqaladi. Ustozning ota-onalari oddiy insonlar bo'lishlariga qaramasdan, qur'onxon bo'lishgan. 1945-yilda o'n yillik umumiy o'rta ta'limni tugatdandan so'ng S.Ordjonikidze nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti filologiya fakultetiga o'qishga kirib, uni 1949 - yilda tamomlab o'sha davrdagi "Obkom komsomola" (Viloyat komsomol yoshlar ittifoqi qo'mitasi) ga ishga kirganlar. 1946 - 1950-yillarda Buxoro Davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatganlar. 1951-yilda Buxorodagi Xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida o'zbek tili va adabiyotidan saboq berganlar.

1951–1954-yillarda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti falsafa fakulteti kunduzgi aspiranturasida tahsil olganlar. Ustozning 80 yillik yubileyi munosabati bilan o'tkazilgan konferensiya to'plamidagi shogirdlari O.Sharipova, B.Karimov tomonidan yaratilgan bibliografiya ma'lumotlariga ko'ra, 1954-yilda "Mantiqiy yetarli asos qonuni" mavzuida falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildilar.

Ustoz Boltayev M.N. asoslagan tasavvufshunoslik maktabi hozirgi kunda ham faol ish olib bormoqda. U kishi rahbarligida 30 dan ziyod tadqiqotchilar falsafa fanlari nomzodi va doktori ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya yoqlaganlar. Fan doktorlari va fan nomzodlarining ismi shariflari "Professor Muhammad Nazarovich Boltayev hayoti va ijodining asosiy sanalari, ilmiy asarlari ko'rsatkichi" ustozning sevimli shogirdlari Sharipova O.T., Karimov B.SH. tomonidan (2008–y.) tayyorlangan risolada batafsil yoritilgan.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli Qarori/ Xalq so'zi. 2018-yil, 15-may.
2. Наврӯзова Г.Н. Бухоро тасаввуфшунослик мактабининг асосчиси.Бухоро: Бухорои шариф – 2022.38-б.
3. Шарипова О., Каримов Б. Профессор Муҳаммад Назарович Болтаев ҳаёти ва ижодининг асосий саналари, илмий асарлари кўрсатгичи. Бухоро: "Бухоро", 2008. 22-бет.
4. Мухаббат Усманджоновна Асророва. [Модульные технологии обучения в вузе. Актуальные задачи педагогики](#), 2016.
5. Мухаббат Усманджановна Асророва. [Вклад Абу Райхана Беруни в развитие науки. Проблемы педагогики](#), 2016
6. Асророва М.У. [М.Н.БОЛТАЕВ ИЛМИЙ МЕРОСИДА ТАСАВВУФГА МУНОСАБАТ](#). TAMADDUN NURI JURNALI, 2025.
7. Asrorova Muhabbat Usmonjonovna. [M.N.Boltayev's Thoughts on "Hegel's Absolute Idealism" Dedicated to Western Philosophy](#). Buletin Antropologi Indonesia, 2025. Page:1-5.
8. Асророва М.У. Муҳаммад Болтаев - маърифатпарвар ислохотчи. @TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O'ZLIK". Xalqaro ilmiy konferensiya. 2024. -B.686-691
9. Асророва Мухаббат Усманджоновна. [ЗНАЧЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА ВО ВЗГЛЯДАХ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ ПО ИНТЕРПРЕТАЦИИ М.Н. БОЛТАЕВА](#). TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258 2024-yil, 9-son (60) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal, 10.69691 DOI prefiksiga ega, 2024. –B.213-216.
10. Мухаббат Асророва, Казимова Гулнора Хакимовна. [СОКРАТ И ПЛАТОН: ОТКРЫТИЕ МИКРОКОСМА ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДУШИ](#). TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258. 2024-yil, 5-son (56) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal, 2024. –B.337-447. 10.69691 DOI prefiksiga ega.

11. GS Yunusova, MU Asrarova **BRINGING TO LIFE THE IDEAS OF IBN SINA**. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), March, 2023. Page:59-67. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz
12. Юнусова Гуландом Самиевна, Асророва Мухаббат Усмонжоновна. Анализ идей Ибн Сины в творчестве ученого М.Н.Болтаева. "ILM SARCHASHMALARI" ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch - 2022/12. -Б.189-194
13. M.U.Asrorova The Human views of Abdurakhman Jami in the Interpretation of MN Boltaev. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. Vol. 3 No. 3 (2022): CAJLPC. Page 53-56. <https://doi.org/10.47494/cajlp.v3i2.277>
14. Mukhabbat Usmandzhonovna Asrarova. THE SIGNIFICANCE OF M. N. BOLTAEV'S SCIENTIFIC RESEARCH ON THE POETIC, SPIRITUAL, AND MYSTICAL-PHILOSOPHICAL HERITAGE OF THE OUTSTANDING THINKER NURIDDIN ABDURAKHMAN JAMI. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021. Том 96. Номер 04.Страницы 461-465.Издатель Philadelphia, USA. <http://t-science.org/arxivDOI/2021/04-96.html>. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS
15. Мухаббат Усмонжоновна Асророва. **ФАЙЛАСУФ ОЛИМ М.Н. БОЛТАЕВНИНГ ЗАРДУШТИЙЛАР ТАЪЛИМОТИНИ ТАДКИКЛАШ НАТИЖАЛАРИ**. Academic research in educational sciences. 2021. Том 2. Номер 1.Страницы 551-561 Издатель ООО «Academic Research». www.ares.uz
16. Yunusova Gulandom and Asrorova Muxabbat. Muhammad Boltaev is a human scientist. International Journal of Applied Research. 2020. Номер 6(5). Страницы 217-219. Издатель India. <http://www.allresearchjournal.com>
17. Асророва Мухаббат Усманджоновна (Бухара, Узбекистан).ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL: International Scientific Journal (Issue 6, 2019) - London: Sp. z o. o. "iScience", 2019. Page 95-101. ISBN: 978-1-9997898-5-5
18. Асророва Мухаббат Усманджоновна (Бухара, Узбекистан).РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ. MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL: International Scientific Journal (Issue 10, 2019) - London: Sp. z o. o. "iScience", 2019. – 292 -296 p. ISBN: 978-1-9997898-5-5
19. Асророва Мухаббат Усманджоновна. ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ВУЗЕ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: an international science journal (20th January, 2019) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2019. Part 2 – 89 - 94 p. ISBN 978-83-949403-3-1.
20. АсророваМ.У., Осипович В.Л. ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ АУДИТОРИИ.Сборник материалов Международной научно-практической конференции. Уфа, Аэтерна 2023 стр.57-60. ISBN 978-5-00177-817-2
21. Хожиева Сарвиноз, Асророва Мухаббат Усманджонова. АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ. НАУКА МОЛОДЫХ - 2023 : сборник статей II Международного научно-исследовательского конкурса (14 июня 2023г.). – Петрозаводск : МЦНП «НОВАЯ НАУКА», 2023. – 144-150 с. ISBN 978-5-00215-023-6

22. Асрарова М. У. Самостоятельное образование – как метод обучения русскому языку. Сборник статей VII Международной научно-практической конференции Минск, 19–20 октября 2023 г. 23-27 с. ISBN 978-31-0006-8
23. Asrarova M. Buxoro falsafa tarixi rivojida M.N.Boltayev maktabining oʻrni. QarDY xabarlari ilmiy –nazariy, uslubiy jurnal.2024, 4(1).-Б. 60-64
24. Komilovna I.N. Ziya Distributed From Tezguzar. JournalNX, 30-33.
25. Komilovna I.N. (2022). Ibrahim Muminov's Scientific and Philosophical Heritage and Subjective Approaches to His Scientific Activity Under the Rule of the Former Ideology. International Journal on Integrated Education, 5(6), 556-559.
26. Ibodova N.K. (2023). ALI QUSHCHI FAOLIYATINI TADQIQ ETISHDA IBROHIM MO'MINOVNING ROLI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 824-829.
27. Komilovna I.N. (2024). Philosophical Lines to Academician Ibrahim Muminov's Activity. Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice, 2(1), 15-18.
28. Ibodova N.K. (2024). THE ROLE OF IBRAHIM MOMINOV IN STUDYING THE PERSONALITY OF AMIR TEMUR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(4), 154-157.
29. Ibodova N. (2024). ACADEMIC IBRAHIM MOMINOV: MY FIRST TEACHER IS MY MOTHER. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 436-438.
30. Ibodova N., & Raupova, R. (2023). ÖZBEK EDEBİYATI DİLİNİN MODERNİTE DÖNEMİNDE GELİŞİMİNDE ÇOLPON'UN ROLÜ. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1). 2023
31. Ibodova Nasiba Komilovna. (2024). ANALYSIS OF IBRAHIM MOMINOV'S CREATION OF ABU RAYHAN BERUNI. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 359–365. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mppt/article/view/5153>
32. Ibodov G.K. (2023). KLASSIK VA MAXSUS - YORDAMCHI MASHQLARNING YUKLAMA ME'YORI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 13–16. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4660>
33. Ibodov Ghalibjon Komilovich. Classic And Special -The Loading Standards of Assistant Exercises. Journal of Sustainability Integrated Policy and Practice. 2024. 19-21-p. <https://journals.proindex.uz/index.php/SIPP/article/view/485/419>
34. N.K.Ibodova. Classification of Lexical Units in the Language of Modern Poetry According to Form and Meaning Relationships. European Journal of Innovation in Nonformal Education. 2024. 163-166-p. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4226/4140>
35. N.K.Ibodova. RELATIONSHIPS OF FORM AND MEANING IN JADID POETRY. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2024. 924-978-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14217148>
36. N.K.Ibodova. THE PERIOD OF GREEDISM: LANGUAGE AND POETRY. International scientific journal. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» 2024. 651-655-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14543293>
37. N.K.Ibodova. LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF NEW POETRY. NEW RENAISSANCE international Scientific Journal. 2025. 905-908-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14738912>

38. N.K.Ibodova. LINGUISTICS - IN A LINGUISTOCULTURAL ASPECT. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». International scientific journal. 2025. 634-638-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14888209>
39. N.K.Ibodova. ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL UNITS. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. 2025. 312-318-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15034562>
40. N.K.Ibodova. LINGUISTICS AND ITS STUDY. NEW RENAISSANCE international Scientific Journal. 2025. 996-1003-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15242278>
41. S.Sulaymanova, N.K.Ibodova. FORMATION OF MORAL RULES IN PRESCHOOL CHILDREN. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal 4 (4), 2025. 1136-1140-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15245855>
42. M.Hoshimova, N.K. Ibodova. SPECIFIC ASPECTS OF THE DEVELOPMENT, BEHAVIOR, AND ACTIVITIES OF THREE-YEAR-OLD CHILDREN. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2. 2025, 615-618-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389272>
43. H.Bahronova, N.K. Ibodova. FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON VALUES. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2. 2025, 380-382-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15368115>
44. N.K.Ibodova. METHODS AND TASKS OF LINGUISTOCULATORY STUDIES. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / 2025, 1019-1023-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15467571>